

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025- yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra viloyatda 6114 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1042 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 1040 tasi (17,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 770 tasi (12,6 %) kiyim ishlab chiqarishga, 512 tasi (8,4 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 477 tasi (7,8 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- sentabr holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 34 332,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	34 332,9	107,0
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	7 936,0	102,7
Qo'qon shahri	5 525,1	108,2
Quvasoy shahri	1 209,0	107,1
Marg'ilon shahri	1 354,8	106,6
Oltiariq tumani	661,8	105,1
Qo'shtepa tumani	1 611,7	105,5
Bag'dod tumani	749,7	104,5
Buvayda tumani	654,4	110,1
Beshariq tumani	953,1	107,5
Quva tumani	621,6	104,3
Uchko'prik tumani	2 763,9	106,8
Rishton tumani	265,7	108,1
So'x tumani	109,0	109,1
Toshloq tumani	1 388,4	103,1
O'zbekiston tumani	911,9	106,2
Farg'ona tumani	1 057,0	108,7
Dang'ara tumani	815,4	104,4
Furqat tumani	547,2	106,1
Yozyovon tumani	273,8	106,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (24 041,2 ming so'm), Qo'qon shahrida (17 537,9 ming so'm), Quvasoy shahrida (11 674,5 ming so'm), Uchko'prik tumanida (11 160,4 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 247,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buyayda tumanida (107,7 %), Farg'ona tumanida (106,5 %), Qo'qon shaxrida (106,4 %), So'x tumanida (106,2 %), Rishton tumanida (106,1 %), Beshariq tumanida (105,6 %), Quvasoy shaxrida (105,1 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar- avgust oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 31 631,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,1 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 208,2 mlrd so'm (0,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 2 252,8 mlrd so'm (6,6 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 240,9 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-avgust oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 71,5 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 51,0 % ga kamaygan), 89,4 ming tonna ip kalava (22,7 % ga kamaygan), 695,5 ming litr aroq mahsulotlari (40,8 % ga ko'paygan) hamda 240,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (62,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust*	2024- yil yanvar-avgust*	2025- yil yanvar-avgust
Paxta tolasi, tonna	37 834,3	43 701,0	46 217,6
Paxta urug'lari, tonna	66 751,0	62 713,3	40 980,7
Avtomobil benzini, ming t	225,6	196,9	71,5
Dizel yoqilg'isi, ming t	294,9	264,2	155,7
Paxta linti, tonna	3 198,4	4 736,6	3 146,3
Neft bitumi, ming t	45,0	38,2	38,0
Portlandsement, ming t	501,7	250,0	239,5
Sement klinkrlari, ming t	138,4	66,5	17,8

**2023-2024- yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,5 % (2024 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,2 % (2024 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024- yilning yanvar-avgust oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,7 % (17,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 25,5 % (25,8 %), quyi texnologiyali 53,0 % (56,7 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 103,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust*	2024- yil yanvar-avgust*	2025- yil yanvar-avgust
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	234,1	228,6	236,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1083,5	848,9	832,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 119,3 % ni, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 123,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 149,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-avgust*	2024- yil yanvar-avgust*	2025- yil yanvar-avgust
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	11,7	26,3	32,6
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	13,5	20,8	31,0

*2023-2024- yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 15 224,4 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 56,2 %ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,3 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

O.Komilov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

